
O'ZBEKISTON MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Oltiariq tumani hokimining o'rinbosari A.Islomov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oltiariq tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri J.Bozorovlar tomonidan O'zbekiston mahalla fuqarolar yig'inida sayyor qabul o'tkazildi.



Unda tumandagi tashkilot-muassasalarning mas'ul xodimlari va 30 nafardan ziyod murojaatchi fuqarolar ishtirok etdilar.

Sayyor qabulda fuqarolarning tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida yer ajratish, aliment undirish, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, moddiy yordam va bola puli olish tartibi va boshqa masalalardagi murojaatlari tinglandi.

Bir qator murojaatlar mutasaddi tashkilotlarning mas'ul xodimlari hamkorligida ijobiy hal etilib, yana o'ndan ortiq murojaat umumiy ish yurituviga olindi. O'ndan ortiq murojaat yuzasidan fuqarolarga joyida huquqiy tushuntirishlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-08-03 15:10:55